

## VII. ISTE'MOL BOZORI



2024- yilning yanvar-sentabrda chakana savdo tovar aylanmasi 6 912,4 mlrd. so'mni yoki 2023- yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,2 foizni tashkil qildi.


Yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasi 391,6 mlrd. so'mni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 5,7 foizini tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning chakana savdo tovar aylanmasi 128,2 foizni tashkil etib, 1 893,1 mlrd. so'mga yetdi, umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 27,4 foizni tashkil qildi.

Umumiy tovar aylanmasi hajmida 4 627,7 mlrd. so'm savdo faoliyati bilan shug'ullanadigan jismoniy shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar hissasiga to'g'ri keldi va o'sish sur'ati 2023- yilning shu davriga nisbatan 102,3 foizga yetdi. Jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmida ushbu sektor ulushi 66,9 foizga teng bo'ldi.




### Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-sentabr oylari)



So'nggi 5 yillikda (2020-2024-yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022-yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021-yilning mos davriga nisbatan 113,3 foizni tashkil qildi.




### Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda)



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida o'sish sur'ati 108,2% ni tashkil qildi.



### Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, % da (2024- yil yanvar-sentabr)



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi davlat va nodavlat shakllari bo'yicha quyidagicha ifodalanadi:

Chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmining eng katta ulushi Jizzax shahri hissasiga to'g'ri keldi va 24,6 foizni tashkil etdi, Sharof Rashidov 12,0 foiz, G'allaorol tumanlari ulushi 11,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, Arnasoy (2,3 foiz), Zafarobod (2,2 foiz) va Yangiobod (1,4 foiz)tumanlari eng past ulushga ega bo'ldi.




**Chakana savdo tovar aylanmasida yirik korxonalar,  
kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining  
hajmi va o'sish sur'atlari, % da  
(2024- yi iyanvar-sentabr)**

Yirik korxonalarning tovar aylanmasi 391,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 99,8 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 6 520,8 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 108,5 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 739,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 112,4 %) tashkil etdi.

	<i>Jami mlrd. so'm</i>	<i>2023- yil yanvar- sentabr oyiga nisbatan, foizda</i>	<i>Yirik korxonalar mlrd. so'm</i>	<i>2023- yil yanvar- sentabr oyiga nisbatan, foizda</i>	<i>Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm</i>	<i>2023- yil yanvar- sentabr oyiga nisbatan, foizda</i>
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>6 912,4</b>	<b>108,2</b>	<b>391,6</b>	<b>99,8</b>	<b>6 520,8</b>	<b>108,5</b>
<i>shahar:</i>						
Jizzax sh	1 613,0	108,6	139,2	86,0	1 473,8	111,4
<i>tumanlar:</i>						
Arnasoy	149,4	105,8	1,8	125,4	147,6	105,6
Baxmal	620,3	109,0	6,5	2,0 m.	613,8	108,5
G'allaorol	782,1	109,7	25,6	114,2	756,5	109,5
Sharof Rashidov	787,8	110,9	12,7	178,3	775,1	110,3
Do'stlik	324,4	105,7	2,0	112,7	322,4	105,6
Zomin	764,7	107,0	130,0	110,4	634,7	106,3
Zarbdor	310,0	104,0	2,2	127,5	307,8	103,8
Zafarobod	144,6	104,1	1,5	113,6	143,1	104,0
Mirzacho'l	228,2	105,9	3,4	3,0 m.	224,8	104,8
Paxtakor	405,9	108,0	1,5	106,8	404,4	108,0
Forish	335,0	107,9	3,1	180,7	331,9	107,4
Yangiobod	91,2	106,0	1,1	126,9	90,1	105,8



### Hududlarning jami chakana tovar aylanmasidagi ulushi



### 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi

	<i>Chakana savdo hajmi, mlrd. so'm</i>	<i>2023- yil yanvar-sentabriga nisbatan foiz hisobida</i>	<i>Umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida</i>
<b>Jami</b>	<b>6 912,4</b>	<b>108,2</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
yirik korxonalar	391,6	99,8	5,7
kichik tadbirkorlik	1 893,1	128,2	27,4
Yakka tartibdagi tadbirkorlik	2 888,0	97,1	41,8
Uyushmagan savdo	1 739,7	112,4	25,1




### 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning chakana tovar aylanmasi

	Jami		Aholi jon boshiga	
	Hajmi, mlrd. so'm	2023- yil yanvar- sentabriga nisbatan, foiz hisobida	ming so'm	2023- yil yanvar- sentabriga nisbatan, foiz hisobida
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>6 912,4</b>	<b>108,2</b>	<b>4 550,9</b>	<b>105,9</b>
<i>shahar:</i>				
Jizzax shahar	1 613,0	108,6	8 171,7	106,4
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	149,4	105,8	3 049,8	104,3
Baxmal	620,3	109,0	3 606,2	106,6
G'allaorol	782,1	109,7	4 153,7	107,4
Sharof Rashidov	787,8	110,9	3 212,8	108,2
Do'stlik	324,4	105,7	4 614,6	104,0
Zomin	764,7	107,0	4 220,3	104,4
Zarbdor	310,0	104,0	3 253,2	101,9
Zafarobod	144,6	104,1	2 676,8	102,1
Mirzacho'l	228,2	105,9	4 090,1	104,0
Paxtakor	405,9	108,0	4 979,7	105,8
Forish	335,0	107,9	3 386,8	106,3
Yangiobod	91,2	106,0	3 039,5	104,6

Viloyatda chakana tovar aylanmasida aholi jon boshiga yuqori o'sish sur'atlari Sharof Rashidov (108,2 %), G'allaorol (107,4 %) va Baxmal (106,6 %) tumanlarida kuzatildi.



**2024- yil yanvar-sentabr oylarida, chakana savdo  
tovar aylanmasining o'sish sur'atlari**  
(ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, % da)




Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 6 912,3 mlrd. so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati 2023-yilning mos davriga nisbatan 108,2 foizni tashkil etdi.

Viloyatning chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining o'sish sur'ati 108,5 foizni va yirik korxonalar o'sish sur'ati 99,8 foizni tashkil qildi.



Viloyatning aksariyat hududlarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari kuzatildi. Xususan, yuqori o'sish sur'atlari Sharof Rashidov (110,7 %), G'allaorol (109,7 %), Baxmal (109,0 %), Jizzax shahar (108,6 %) va Paxtakor (108,0 %) tumanlarida kuzatilgan bo'lsa, nisbatan yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Zafarobod (104,1 %) va Zarbdor (104,0 %) tumanlarida kuzatildi.







**2024- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati, % da**


**Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da**

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2023-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 99,8 foizni va hajmi 391,6 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa, umumiy savdo hajmining 5,7 foiz ulushiga to'g'ri keldi.

**Yirik korxonalar**




**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik**




**Eng past ulushga ega hududlar, % da**

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra 6 520,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 8,5 foizga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 94,3 foizni tashkil etdi.

**Yirik korxonalar**




**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik**






### Tumanlarning umumiy ovqatlanish korxonalari tovar aylanmasi (2024- yil yanvar-sentabr)



Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi umumiy hajmida yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida (96,6 mlrd. so'm), Sharof Rashidov (50,1 mlrd. so'm), Zomin (43,7 mlrd so'm) hamda Baxmal (15,9 mlrd. so'm) tumanlarida, eng past ko'rsatkich esa Arnasoy (3,8 mlrd. so'm), Yangiobod (2,0 mlrd. so'm) va Zafarobod (1,6 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

	Hajmi, mlrd. so'm	Jamiga nisbatan foizda	2023- yil yanvar- sentabriga nisbatan foiz hisobida
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>3 745,8</b>	<b>100,0</b>	<b>111,0</b>
<i>shahar:</i>			
Jizzax shahar	96,6	36,4	100,7
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	3,8	1,4	101,2
Baxmal	15,9	5,9	102,0
G'allaorol	15,8	5,9	101,0
Sharof Rashidov	50,1	18,7	101,4
Do'stlik	6,8	2,5	101,2
Zomin	43,7	16,3	228,1
Zarbdor	11,8	4,4	100,6
Zafarobod	1,6	0,6	101,5
Mirzacho'l	5,2	1,9	101,5
Paxtakor	6,9	2,6	101,2
Forish	7,1	2,7	101,2
Yangiobod	2,0	0,7	100,7

Eng yuqori o'sishga  
erishgan hududlar



Zomin 43,7 mlrd. so'm  
Baxmal 15,9 mlrd. so'm  
Zafarobod 1,6 mlrd. so'm






**2024- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida  
avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari  
ulgurji va chakana savdo aylanmasi**

	<i>Hajmi, (mlrd. so‘m)</i>	<i>Jamiga nisbatan, foizda</i>	<i>2023- yil yanvar-sentabriga nisbatan foizda</i>
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>9 288,7</b>	<b>100,0</b>	<b>112,0</b>
<i>shahar:</i>			
Jizzax shahar	5 498,4	59,3	122,5
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	2,9	0,0	135,1
Baxmal	2 286,2	24,6	105,7
G‘allaorol	856,4	9,2	9,4 m.
Sharof Rashidov	377,5	4,1	30,3
Do‘stlik	2,7	0,0	135,1
Zomin	225,3	2,4	83,7
Zarbdor	0,3	0,0	135,1
Zafarobod	0,8	0,0	135,1
Mirzacho‘l	11,8	0,1	135,1
Paxtakor	7,7	0,1	135,1
Forish	17,3	0,2	108,2
Yangiobod	1,4	0,0	135,1

Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Jizzax shahri (5 498,4 mlrd. so‘m), Baxmal (2 286,2 mlrd. so‘m) va G‘allaorol (856,4 mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.




### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi. (mlrd. so'm)



2024-yilning yanvar-sentabr oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi (motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari) 9 288,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 12,0 % ga o'sdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 5 961,2 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 4,7 m.), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 3 327,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 47,4 %) tashkil qildi.



### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foizda





### 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida ulgurji tovar aylanmasi

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida ulgurji savdo tovaraylanmasi 3 240,6 mlrd. soʻmni yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan oʻsish surʻati 144,3 foizni tashkil etdi.

Yirik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasi 414,9 mlrd. soʻmni yoki oʻtgan yilning shu davriga nisbatan oʻsish surʻati 179,0 foizni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning ulgurji savdo aylanmasi 2 825,7 mlrd. soʻmga yetdi va oʻsish surʻati 140,3 foizni tashkil etib, umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi 87,2 foizni tashkil qildi.

	<i>Hajmi, (mlrd. soʻm)</i>	<i>Jamiga nisbatan, foizda</i>	<i>2023- yil yanvar-sentabriga nisbatan foizda</i>
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>3 240,6</b>	<b>100,0</b>	<b>144,3</b>
<i>shahar:</i>			
Jizzax shahar	1 938,9	65,0	170,5
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	40,3	1,4	103,3
Baxmal	55,5	1,9	32,0
Gʻallaorol	92,3	3,1	135,0
Sharof Rashidov	168,3	5,7	99,1
Doʻstlik	35,2	1,2	66,9
Zomin	247,6	8,3	102,2
Zarbdor	55,2	1,9	88,1
Zafarobod	11,6	0,4	91,5
Mirzachoʻl	11,3	0,4	96,0
Paxtakor	11,5	0,4	97,9
Forish	301,3	10,1	18,0 m.
Yangiobod	5,3	0,2	91,4

Hududlar kesimida ulgurji Tovar aylanmasi oʻtgan yilning mos davriga nisbatan yuqori boʻlgan oʻsish surʻatlari Forish (18,0 m.), Jizzax shahri (170,5 %) va Gʻallaorol (135,0 %) tumanlariga toʻgʻri keldi.



### 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida yirik va kichik biznes korxonalarining ulgurji savdo aylanmasi

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida yirik korxonalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 414,9 mlrd. soʻmni (oʻsish surʼati 179,0 %), kichik biznes va mikrofirmalarining tovar aylanmasi 2 825,7 mlrd. soʻmni (oʻsish surʼati 140,3 %) tashkil etdi

	Jami mlrd. soʻm	2023- yil yanvar- sentabr oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. soʻm	2023- yil yanvar- sentabr oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. soʻm	2023- yil yanvar- sentabr oyiga nisbatan, foizda
--	-----------------------	---	-----------------------------------	---	--	---

Jizzax viloyati	3 240,6	144,3	414,9	179,0	2 825,7	140,3
-----------------	---------	-------	-------	-------	---------	-------

shahar:


Jizzax	1 938,9	170,5	53,3	77,1	1 885,6	176,5
--------	---------	-------	------	------	---------	-------

tumanlar:

Arnasoy	40,3	103,3	0,0	108,5	40,3	103,3
Baxmal	55,5	32,0	0,1	0,1	55,4	109,6
Gʻallaorol	92,3	135,0	23,8	99,7 m.	68,5	100,4
Sharof Rashidov	168,3	99,1	0,2	63,6	168,1	99,1
Doʻstlik	35,2	66,9	0,1	0,7	35,1	89,7
Zomin	247,6	102,2	16,1	976,3 m.	231,5	95,6
Zarbdor	55,2	88,1	0,1	4,0 m.	55,1	88,0
Zafarobod	11,6	91,5	0,2	2,9 m.	11,4	90,6
Mirzachoʻl	11,3	96,0	0,1	97,1	11,2	96,0
Paxtakor	11,5	97,9	0,5	2,2 m.	11,0	95,4
Forish	301,3	1796,7	286,2	1 073,0 m.	15,1	91,3
Yangiobod	5,3	91,4	0,1	77,5	5,2	91,6



Ulgurji savdo tovar aylanmasida hududlar ulushi, % da



Ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida eng katta ulushga ega bo'lgan hudud Jizzax shahri (65,0 %) hisoblanadi. Shuningdek, Forish (10,1 %) va Zomin (8,3 %) tumanlari nisbatan yuqori ulushga, Zafarobod (0,4 %), Paxtakor (0,4 %), Mirzacho'l (0,4 %) hamda Yangiobod (0,2 %) tumanlari esa eng past ulushga ega bo'ldi.

Shundan, yuqori hajmlar Jizzax shahrida (1 938,9 mlrd. so'm), Forish (301,3 mlrd. so'm), Zomin (247,6 mlrd. so'm), Sharof Rashidov (168,3 mlrd. so'm) hamda Baxmal (50,5 mlrd. so'm) tumanlarida qayd qilindi.